ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 4

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 4

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 26.04.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 26.04.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)

Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)

Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)

Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)

Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)

Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)

Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Шоира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 26.04.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Amonturdieva, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA,
TO‘YCHIYEVA ZULEYXA HAMROQO‘LOVNA
Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”
asarida so‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash 7

BERDIYEV XUSAN XOLNAZAROVICH
«Devon-u lug‘otit turk»dagi she’rlarda
hojib va radif san’atlari 13

УМУРҚУЛОВ ЗАФАР БЕКПЎЛАТОВИЧ
Қиёслаш инсон тафаккур тарзининг маҳсули 16

ESHBOYEV QAHRAMON BAKIR O‘G‘LI
So‘zlararo darajalanish o‘quv lug‘atida so‘zlarga izoh berish 20

NAVRUZOVA MUYASSAR GAYBULLAYEVNA
Kasallik nomlarining onomasiologik, semantik ifodasi 24

BOZOROV HAMID XO‘SHMURODOVICH
Antroponimlarning lingvomadaniy xususiyatlari
(O‘zbek xalq ertaklarida mavjud antroponimlar misolida) 28

ДЖАББАРОВА ШОИРА БАЛТАЕВНА
Медиа тилида муқобилсиз лексика таснифлари: назарий ёндашув 33

KULTAYEVA FAZILAT BAXTIYAROVNA
Ergonimlarning morfologik derivatsiyasi xususida 36

HAYDAROVA KAMOLA DAVRANOVNA
O‘zbek, rus va ingliz tillarida meva nomlarining qiyosiy-chog‘ishtirma tahlili 39

TERMIROVA KAMOLA
Ziravor atamalar va ularning lug‘atlarda ifodalanishi 43

TURDIMURODOV SIROJIDIN ESHQOBILOVICH,
JABBOROVA SEVARA BAXTIYOR QIZI
Badiiy matnda evfemik birliklar tahlili 50

SOATOVA YULDUZ
Bobur she’riyatida ayol qaddi-qomatini ifoda etuvchi lingvistik vositalar 53

ТОЛИЕВА ШОИРА ИЛХОМОВНА
Лингвистик экспертиза методларининг тамойиллари 57

AVRIDDINOV JOBIR MUSULMON O‘G‘LI
Sharq olimlarning «Zufongo‘yo va Jahonpo‘yo» lug‘atida ilmiy qarashlari 59

ДАВЛЯТОВА ЭЛЬВИРА МУРАДОВНА
Парадигматические свойства иноязычных лексических единиц
в русском и узбекском языках (на материале интернет медиа) 61

МУНДАРИЖА

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Концепт «богатство» во фразеологизмах
и паремиях узбекского и русского языков 64

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Эволюция лексических единиц обозначающих мужчин и женщин 67

QULMAMATOVA MUATTAR OTABEK QIZI
Ingliz va o‘zbek maqollarida “boylik” konseptining chog‘ishtirma tadqiqi 70

FARZANA NABI,
ABDULLA XUDAYQULOV ESHQUVVATOVICH
Official documents in dari language, its translation challenges 73

ЖАББАРОВА НАРГИЗА ИСЛАМЖАНОВНА,
РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Влияние гендерной лексики на сознание и поведение людей 76

ADABIYOTSHUNOSLIK

ARSLONOV ABDIMUROD KARAMATOVICH
“Qissasi Rabg‘uziy”da xalq og‘zaki ijodi syujetlari va motivlari 80

КАЗАКОВА ГУЛАСАЛ КУРАЛОВНА
Эссе жанрида шахс концепциясининг бадиий-публицистик талқини 82

LOLAYEV SHUXRAT ALIQOBIL O‘G‘LI
Turkistonda “Usuli jadid” maktablarining shakllanishi va ahamiyati 84

USMONOVA MOHIDIL LAZIZ QIZI
Ravnaq g‘azallari tabdilidagi matniy tafovutlar 87

TA’LIM

ABDUQAYUMOVA NARGIZA RAIMOVNA
Bo‘lajak rus-tili o‘qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga
tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish metodikasi 90

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SO‘ZLARARO DARAJALANISH O‘QUV LUG‘ATIDA SO‘ZLARGA IZOH BERISH

Eshboyev Qahramon Bakir o‘g‘li,
Renessans ta'lim universiteti, filologiya kafedrasi dotsenti v.b,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

So‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘atini yaratishdagi asosiy maqsad muayyan tilda mavjud bo‘lgan muayyan belgisi asosida darajalanish munosabatiga bo‘luvchi leksemalarni darajalanish qatoriga joylashtirish, darajalanuvchi leksemalarning o‘zaro umumiy va farqli xususiyatlarini ko‘rsatish, so‘zlar ma'nosidagi nozik jihatlarni anglash, so‘zning ana shu xususiyatini e'tiborga olgan holda nutqda qo‘llash ko‘nikma va malakani rivojlantirish kabi lingvodidaktik talablarni qondirishdir. O‘zbek tilida zamonaviy darajalanish lug‘atining yaratilishida o‘zbek tilining izohli lug‘ati, so‘zlar darajalanishi lug‘ati, o‘zbek tili sinonimlari va antonimlari lug‘ati asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Graduonimik lug‘atning yaratilishi nafaqat til o‘rganuvchilar, qolaversa barcha fan sohalarida faoliyat yuritayotgan kishilarga ham birdek zarurki, maqola yozishda, asar yoki hikoya yozishda so‘zlarning ma'nosi, ishlatilish ko‘lami, ma'nodosh boshqa so‘zlaridan nimasi bilan farq qilishini ushbu lug‘at orqali yana ham oson bilib olish imkoniyatini yaratadi[1].

“Tilshunos olima Sh.Orifjonova lug‘aviy birliklar o‘zaro ma'noviy munosabatiga ko‘ra ma'lum bir darajalanish qatorini hosil etishi fanga qadimdan ma'lum, deya ta'kidlaydi va uning eng yorqin namunasi sifatida – *o‘rta* so‘zini o‘z ichiga olgan so‘zlar qatori bilan dalillaydi.

katta – o‘rta – kichik
yosh – o‘rta – qari
uzoq – o‘rta – yaqin
baland – o‘rta – past
uzun – o‘rta – qisqa”[2].

Tilshunos “*o‘rta* so‘zi bilan ifodalangan belgi-xususiyat tom ma'noda o‘rtalik, oraliq, ya'ni ikki bir-biriga zid belgi oralig‘idagi holat ekanligini ko‘rsatadi. *O‘rta* leksemasi antonimlar oralig‘idan o‘rin olsa, *katta – o‘rta – kichik* darajalanishi kam seziladi. Lekin *o‘rta* leksemali birliklarni zid belgi asosida emas, ma'lum bir belgining kamayishi yoki o‘sishi asosida idrok etilsa, ma'noviy darajalanish yaqqol anglashiladi”[3]. Aslida graduonimiya semantik darajalanishlarga asoslangan bir umumiy yo‘nalishli qator (zanjir) bo‘lsa, antonimiya shu zanjirning (qatorning) turli qismlari (a'zolari) orasidagi semantik farqlanuvchanlik-zidlanuvchanlik munosabatlaridir.

Tadqiqotning mazkur faslida so‘zlar darajalanish o‘quv lug‘atidagi so‘zlarga izoh berish masalasiga asosiy e'tibor qaratish lozim bo‘ladi. O‘zbek tili zamonaviy avlod so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘atidagi leksemalarga izoh berish doirasida quyidagi namunalarni qayd qilish joiz.

Farosatli – zehnli – didli –
zakovatli – zukko – zakiy – zol
(qo‘llanish doirasining keng-torligiga ko‘ra)

FAROSATLI *a.***–** fahmli, aqilli, didli.

ZEHNLI *a.***–** tez idrok etadigan, uquvli.

DIDLI *f.* **– 1** Go‘zallikni, nafosatni his etadigan, undan estetik zavqola biladigan. **2** Aql-farosatli, fahmli, idrokli.

ZAKOVATLI *[a.* **–** sezgirlik, akllilik, farosat.

ZUKKO *[a.* **–** zehni o‘tkirlik; farosat; aql] Aqli, zehni o‘tkir; aklli, dono.

ZAKIY *[a.* – ziyrak; aklli, qobi-liyatli) *kt.* Zehni, aqli o‘tkir; dono, aqlli. *Uzoq maqsad uchun tarixni chaplab, Homiylarni, zakiy-larni sotganlar ozmi?* [A.Oripov, Yillar armoni]. *Ota-ona go‘dakning* ***zakiyligiga*** *lol qolib, cho‘rini topib keladilar va undan afv so‘raydilar.* [O.Yoqubov, Qo‘hna dunyo].

ZOL I *[f.* **–** juda ham qari] *kt.* Ko‘p ish ko‘rgan, hamma narsaga aqli yetadigan; tadbirli. *Endi xat masalasi bo‘lsa, bari bir, u* ***zol*** *xotin bir aldandimi, endi hushyorroq bo‘la-di.* [Hamza, Maysaraning ishi].

ZOL II [*a.* **–** arab alifbosidagi z harfining nomi] Arab grafikasi asosidagi eski o‘zbek yozuvida o‘n birinchi harfning nomi.

Yangi taklif qilinayotgan so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘atidagi so‘zlarga shu tartibda izoh berish mumkin, leksemalar izohiga qo‘shimcha tarzda illyustrativ misollar ham berilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

[1] Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Монография. – Тошкент, 1995. – Б 186.

[2] Джумабаева Ж. Турли тизимли тилларда лексик ва стилистик градуонимия. Монография. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. – Б 9.

[3] Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1996. – Б 9.

Sh.Orifjonova tomonidan darajalanish munosabatlari bilan bog‘langan so‘zlar qatori ikki guruhga ajratiladi:

1. G‘ayrilisoniy asos	1. sof lisoniy asos

“G‘ayrilisoniy omilning mohiyati shundaki, borliqdagi narsa, belgi-xususiyatda sifat farqi bilan birga miqdor farqi ham mavjud. Masalan, inson *go‘daklik, yoshlik, navqironlik, yetuklik, qarilik* holatini, *o‘simlik, navnihollik, ko‘chatlik, yetilganlik, quriganlik* davrini boshidan kechiradi – o‘sadi. Tabiatdagi rang va boshqa belgilar shunchalik xilma-xilki, bo‘yoqchilar birgina qora rangning hatto o‘ndan ortiq turini ajratadilar, deb keltiradi o‘zining darsligida. Insonning faol ongi ana shu miqdoriy va sifatiy farqni aks ettiradi. Til ongning ifodasi bo‘lganligi bois u ongdagi aks ettirilgan mana shunday miqdoriy farqlarni ham ifodalashi lozim. Bunday miqdoriy farq turli usul bilan, jumladan, alohida-alohida leksema bilan ham ifodalanadi. Chunonchi, *nihol – ko‘chat – daraxt, ninni – chaqaloq, go‘dak – bola, buzoq – tana – g‘unajin – sigir* kabi”[1].

1. “**Darcha** – ilgari vaqtlarda deraza vazifasini o‘tagan bir yoki qo‘sh tabaqali, eshik yoki devorga o‘rnatilgan kichkina eshikcha”[2].

2. “**Eshik** – uy, xona, bino yoki hovlining kiraverishida o‘rnatilgan ochib-yopib turiladigan moslama”[3].

3. “**Darvoza** – hovli, qo‘rg‘on, qal’a, zavod va shu kabilarga kiriladigan, ochib-yopiladigan katta eshik, qopqa”[4]. Tilshunos darcha va darvoza leksemalarini ma’no tomondan eshikni, eshik esa derazani taqazo qilishini aytib o‘tadi. Bu leksemalar hajm ko‘lamining katta-kichikligiga ko‘ra darajalanish qatorini xosil qilgan.

Sh.Orifjonova o‘z ishida yana
bir darajalanish qatorini keltirgan.

“***gulobi – pushti – qizg‘ish – qizil – ol – qirmizi”[5].***

Bu leksemalarning izohli lug‘atdagi ma’nolariga e’tibor qaratamiz.

1**. Gulobi** – gulob rangli, pushti.

2. **Pushti** – shaftoli guli rangidagi, och qizil.

3. **Qizg‘ish** – qizilga moyil, qizilga yaqin rangdagi, qizg‘imtir.

4. **Qizil** – qon rangidagi, qirmizi, olvoli.

5. **Ol** – qizil, qirmizi.

6. **Qirmizi** – qizil rangli, qizil, ol [8;581]. (Ushbu izohlar O‘zbek tilining izohli lug‘ati 1,2,3,4,5 jildlaridan olindi). Bu leksemalar graduonimik qator tarkibida umumiy qizillik ma’nosi ostida birlashadi.

“qizillik”

gulobi pushti qizg‘ish qizil ol qirmizi

-3 - 2 - 1 0 1 2

Orifjonova sinonimik paradigma a’zolari kabi, graduonimik lug‘aviy paradigma a’zolari ham yetakchi so‘z (dominant) atrofida birlashishini aytib o‘tadi. Tilshunos *darcha, eshik, darvoza* so‘zlarida dominant so‘zni *eshik* deb oladi, *gulobi – pushti – qizg‘ish – qizil – ol – qirmizi* darajalanish qatorida esa, *qizil* so‘zini dominant so‘z deya belgilaydi. Darajalanish qatorida dominant so‘zning bo‘lishi qator tarkibidagi leksemalarning boshqasining o‘rnida dominant so‘zning qo‘llanilish imkonini beradi degan fikr kelib chiqmasligi kerak. Darajalanish qatorida leksemalar ma’nosi bir-biridan farq qilish kerak, aks holda, sinonimlardan farq qilmaydi. Darajalanish qatorida shunday so‘zlar borki, birining o‘rnida ikkinchisini qo‘llashning imkoni yo‘q.

Masalan: **Kecha - bugun - erta - indin**
(zamoniyligiga ko‘ra)
Oila - mahalla - ovul - qishloq - shahar - tuman - viloyat respublika *(hududiy qamrovining tor-kengligiga ko‘ra)*
Tug‘ilmoq - yashamoq - o‘lmoq
(hayot davrining bosqichlariga ko‘ra)
Sovuq - iliq - issiq
(haroratning past-balandligiga ko‘ra).

Bunday misollar sirasini yana ko‘plab keltirish mumkin. Bizningcha graduonimik qatorda dominant so‘z deganda, qator tarkibidagi lesemalarning o‘sish yoki kamayishi, salbiylik yoki ijobiylikni belgilab beradigan, ya’ni qator markazida turadigan so‘z ma’nosida tushunish lozim.

Shu o‘rinda sinonimiya va graduonimiyaning o‘zaro munosabati haqida tadqiqotchi G‘.Rahmonovning fikri ham e’tiborli. Sinonimiya ma’nolari bir xilligi, o‘zaro yaqinligi yoki o‘xshashligi hodisalariga asoslansa, graduonimiya esa farqlilik omillariga tayanadi. Demak, sinonimiya va graduonimiya hodisalari o‘zaro keskin farqlanadi. Biroq shunga qaramay, ular o‘rtasida ma’noviy munosabat mavjud. Bu ma’noviy munosabat qay yo‘sinda namoyon bo‘ladi. Aslida sinonimlardan biri o‘rnida ikkinchisini kontekstual qo‘llash imkoniyati mavjud bo‘lsa, denotativ ma’nolarga asoslangan graduonimlarda bunday bo‘lishi mumkin emas, biroq barcha hollarda graduonimlar orasida darajalanish farqlari kuchli yoki

[1] Раҳмонов Ғ. Ўзбек тилида луғавий синонимия ва градуонимиянинг ўзаро муносабати: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2018. – Б 19.

[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б 212.

[3] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б 457.

[4] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б 209.

[5] Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1996. – Б 25.

kuchsiz bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda sememalardagi o‘xshashlik ortadi va bu holat ularda ma’noviy yaqinlikni (sinonimlardagi kabi birlikni, aynanlikni emas) keltirib chiqaradiki, natijada ular ayrim kontekstual omillar hisobiga biri o‘rnida ikkinchisini qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lib qoladi. Shularga qaramay, sinonimiya va graduonimiya munosabatiga doimo ular shakllanishining bosh omillari bo‘lgan aynanlik va farqlilik hodisasi nuqtai nazaridan qaramoq kerak [4;38].

J.Jumabayevaning tahlillariga nazar soladigan bo‘lsak, A.Hojiyevning sinonimlar lug‘atida *nodon* leksemasi berilmagan, *ahmoq* so‘zining sinonimlari sifatida esa quyidagi so‘zlar keltiriladi: *ahmoq, tentak, go‘sho‘r.* Demak, belgining kuchayishi tarzida darajalanish qatori: *go‘sho‘r – tentak – ahmoq – nodon;* belgining pasayishi bo‘yicha darajalanish qatorini: *nodon – ahmoq – tentak – go‘sho‘r* ko‘rinishida berish mumkin. *Aqlli, dono* so‘zlariga keladigan bo‘lsak, *aqlli* so‘zining sinonimlari sifatida *esli, miyali, kallali* so‘zlarining oddiy so‘zlashuvga xosligi ta’kidlanadi. *Dono* so‘zi yuqorida qayd etilgan sinonimlar lug‘atida, afsuski, keltirilmagan[2;18]. Shu o‘rinda aytishimiz lozimki, Sh.Bobojonov va I.Islomovlarning so‘zlar darajalanish lug‘atidan *go‘sho‘r – tentak – ahmoq – nodon* darajalanish qatoridan *devona* leksemasi ham o‘rin olgan. *Axmoq - tentak - go‘sxur - devona* qatori orqali kuzatishimiz mumkinki, qator tarkibidan *nodon* leksemasi o‘rin olmagan.

J.Djumabayeva yuqorida keltirilgan sinonimik qatorga o‘zining tahlillari asosida yondashadi. U shaxsiy kuzatuvlar, tahlillar asosida *aqlli – zehnli – oqil – dono* tarzida darajalanish qatorini keltiradi. Shuningdek, *nodon – ahmoq – tentak – go‘sho‘r – aqlli – zehnli – oqil – dono* qatorini hosil qiladi. Lekin ushbu qator semantikasiga e’tibor beradigan bo‘lsak, 0 darajadagi leksema yo‘qligi sababli baribir *aqlli* so‘zi boshlanishi bilan ajralib qolmoqda. Shuning uchun yuqoridagi, ya’ni *nodon – ahmoq – tentak – go‘sho‘r* qatorini aqliy sustlik belgisi asosida ajratib berish ma’qulroq, deya ta’kidlaydi[1]. So‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘atidan bu leksemalar quyidagicha qator tarzida joylashtirilishi maqsadga muvofiq:


ahmoq – tentak – go‘sho‘r – devona;

aqlli – zehnli – oqil – dono kabi.

Darajalanish lug‘atida berilgan *yuz – bet – aft – bashara – turq – chehra – jamol – diydor – oraz* qatorini olaylik. Ayni bu qatordagi salbiy munosabat *yuz – jamol – chehra – diydor – oraz* leksemalarida ifodalanmagan. *Bet – aft – bashara – turq* leksemalarida esa salbiylik ma’nosi ifodalangan. Salbiy munosabat darajasi *bet*dan *turq*qa qarab o‘sib boradi. Shunday qatorni “ijobiy munosabat” va uning daraja belgisi asosida *yuz – chehra – jamol – diydor – oraz* leksemalari tashkil etadi. Bu qatorda belgining *chehra*dan *oraz*ga tomon o‘sishi kuzatilmoqda.

Ijobiylik yoki salbiylikning oshib va, aksincha, kamayib borishi asosida graduonimik qatordagi leksemalar darajalanishi mumkin:

1 diagramma



Yuqoridagi rasmda ko‘rsatilganidek, darajalanish belgisi ijobiylikdan salbiylik tomon, salbiylikdan ijobiylik tomon ortib bormoqda.

ruxsor – uzor – oraz – diydor – jamol – chehra – yuz – bet – aft – bashara – turq

+7 +6 +5 +4 +3 +2 0 -1 -2 -3 -4

[1] Джумабаева Ж. Турли тизимли тилларда лексик ва стилистик градуонимия. Монография. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. – Б 18.

Bu leksemalarga “O‘TIL”da quyidagicha izoh berilgan:

1. **YUZ** – Odam boshining old tomoni, old tomondan ko‘rinishi; bet.

2. **CHEHRA** [f. – yuz, siymo] – Yuz, bet, aft-angor; siymo.

3. **JAMOL** [a. – go‘zallik, suluvlik; jozibadorlik]. **1.** Husn, ko‘rk, chiroy. **2.** Chiroyli yuz, chehra.

4. **DIYDOR** [f. – tashqi ko‘rinish, yuz] Kishining yuzi, jamoli, ruxsor; bashara.

5. **ORAZ I** [a. – tashqi ko‘rinish; yuz, yonoq] *poet.* Chiroyli yuz, bet, chehra; jamol.

6. **UZOR** [a. – yuzdagi mayin tuk; yuz, chehra] *esk. poet.* Yuz, ruxsor.

7. **RUXSOR** [f. – tashqi ko‘rinish, qiyofa; yuz, bet; yonoq] **1** Kishining yuzi; bet; aft-angor, chehra.

8. **BET 1** Odam boshining old qismi, old tomoni; yuz, aft. **2** Yuzning yonoqdan iyakkacha bo‘lgan ikki tomonidan har biri; chakka.

9. **AFT 1** Odam boshining old qismi; yuz, bet. **2** Yuz ko‘rinishi, qiyofa; turq.

10. **BASHARA** [*a.* **–** teri; po‘st] **1** Kishi boshining old qismi; bet, yuz. **2** Kishining ruhiy holatini, xarakterini gavdalantiruvchi holat, ko‘rinish; aft, avzo. **3** *ko‘chma* Kishining ma’naviy qiyofasi.

11. **TURQ** Tashqi qiyofa, avzo, vajohat (asosan, salbiy munosabat bilan)[1]. (Ushbu izohlar O‘zbek tilining izohli lug‘ati 1,2,3,4,5 jildlaridan olindi).

“Graduonimiya munosabatida leksemalar ifodalayotgan bitta belgining turli darajalari ifodalanadi. Bundan graduonimiya – belgi bildiruvchi leksemalararo munosabat, degan fikr kelib chiqmasligi lozim. Darajalanish hosil qilayotgan leksemalar tarkibida bir belgining ozlik yoki ko‘plik holatlarini aks ettiruvchi semalar mavjud bo‘ladi. Aslida, shu semalarning ikki yoki undan ortiq leksemaga xosligidan leksemalarning darajali qatori kelib chiqadi. Masalan, *yoz – kuz – qish* qatori “havo haroratining kamayib borishi” belgisining darajama-daraja oshib borishi natijasida shakllangan. Darajalanish yoz sememasidagi “issiq” semasi, kuz sememasidagi “iliq” potensial semasi, qish sememasidagi “sovuq” semasi asosida ro‘y bergan. Graduonimik qatordagi bir-biriga yaqin leksemalarda ma’noviy yaqinlik kuzatiladi va bu semantik yaqinlik sinonimiya darajasida bo‘lishi ham mumkin: *achchiqlanmoq, g‘azablanmoq, qahrlanmoq.* Graduonimik qatordagi bir-biridan uzoq joylashgan leksemalarda farqlilik kuchayib boradi. Qatorning boshi va oxirida joylashgan leksemalardagi farqlilik (ziddiyat) antonimiyagacha yetib borishi mumkin: *yomon – qoniqarli – yaxshi* kabi”[2].

Yangi tuziladigan darajalanish o‘quv lug‘atida graduonimik qator, undan so‘ng esa, qator ostidan qatordagi har bir leksemaning izohi, shartli belgilari, zarur bo‘lgan hollarda illyustrativ misollar beriladi. Masalan:

Hujra – kulba – uy – qasr – koshona – saroy

1. HUJRA [a.] Kishi yashaydigan kichkina xona, uycha.

2. KULBA [f.] Kichik, ko‘rimsiz, bechorahol uy; boshpana.

3. UY Yashash uchun yoki turli tashkilot, muassasa va sh.k. joylashishi uchun mo‘ljallangan bino.

4. QASR [a.] Har qanday muhtasham bino, dang‘illama uy, toq-ravoq, koshona.

5. KOSHONA [f.] *kt.* Hashamatli, ko‘rkam bino.

6. SAROY II [f.] **1** *map.* Xon, amir, podshohlarning doimiy qarorgohi bo‘lib xizmat qilgan hashamatli katta bino; koshona.

Darajalanish qatorini yuqoridagi tartibda tuzish, qatordagi har bir so‘zni qatordan so‘ng ketma-ketlikda izohlash, zarur holda illyustrativ misol keltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Rezyume. Ushbu maqolada yangi yaratilajak zamonaviy so‘zlar darajalanish o‘quv lug‘atida so‘zlarga izoh berish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar talqini yoritilgan.

Rezyume. In this article, the interpretation of issues such as commenting on words in the newly created educational vocabulary of modern words is highlighted.

Резюме. В данной статье рассматривается интерпретация инструкций и рекомендаций по комментированию слов вновь созданной учебной лексики современной лексики.

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б 211.

[2] Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Монография. – Тошкент, 1995. – Б 23.